

## NODIRA SHE’RIYATIDA BADIY SAN’ATLARNING MOHIRONA QO‘LLANISHI

**Salimjonova Marhamat Yusufvna**

*Toshkent shahar Uchtepa Tumani 245-umum ta’lim  
maktabi O‘zbek tili fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola Nodira she’riyatidagi badiiy san’atlar haqida yozilgan. Shu o‘rinda maqolada badiiy san’atlar va ularning adabiyotdagi ma’no- mazmuni Nodira yaratgan she’riy misralar orqali yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Nodira she’riyati, istiora, tashbeh, muashshar, tamanni san’ati, tamsil*

An’anaviy mavzularda qalam tebratgan mumtoz shoirlar badiiy ijod jarayonida taassurot va ilhomga suyanishdan avval ilmga tayanganlar. Ular vazn, qofiya nazariyasini qanchalik puxta o‘zlashtirsalar, badiiy san’atlardan bahs yuritilgan ilm tarmog‘ini ham o‘shancha chuqur egallashgan. Bu esa ba’zi mashhur san’atkorlarning she’rning o‘ziga xosligi, badiiyligi bilan bir qatorda uning ilmiyligi to‘g‘risida so‘zlashga ham yo‘l ochgan. Fuzuliy she’riyati poetikasini tadqiq etgan olim Sobir Aliyevning xulosasiga ko‘ra, “shoirlik bilan olimlik Fuzuliy shaxsiyatida va ijodiyotida birlashmishdir... Badiiy uslub ila ilmiy uslub uning asarlarida vahdat holida zuhurlangan. Shoir Fuzuliy she’riyatida olimdir, olim Fuzuliy esa ilmiy mulohazalarida shoirdir” .

Darhaqiqat, o‘zbek adabiyotining yirik vakillari ham ilm va nazmni she’rning ajralmas unsurlari deb hisoblashgan. Shuningdek, “ilmsiz she’r asosi yo‘q devor erur, asossiz devor bee’tibor bo‘lur”, deb bilishgan.

Ma’lumki, badiiy asarda biror so‘zni o‘z ma’nosidan boshqa bir ma’noda qo‘llash san’atiga istiora deb yuritiladi. Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-balog’a” asarida istiora haqida shunday deydi: “Bu san’at ul bo‘lurkim, bir lafzeni haqiqiy ma’nodin elitib, yana o‘zga yerda oriyat tariqi birla keltururlar” . “Istiora” arabcha so‘z bo‘lib, “biror narsani omonatga olmoq” degan ma’noni bildiradi. “Adabiy istilohda so‘zni o‘z ma’nosidan boshqa ma’noda, majoziy – ko‘chma ma’noda qo‘llashni anglatadi. Ko‘pincha bu ikki ma’no o‘zaro o‘xshashlikka asoslanadi. Shu jihatdan istiora tashbeh san’atiga yaqin turadi. Istiora aksar hollarda tashbehi kinoyaga, ya’ni mushabbihi tushirilgan tashbehga teng keladi” .

Adabiyotshunoslikda istiora tashbehdan kuchli sanaladi. Zero, “ey gul kabi go‘zal mahbuba” ifodasidan ko‘ra “ey gul” iborasi kuchliroq, ta’sirchanliroq jaranglaydi.

Ul parivash vaslidin bo‘ldim judo,

Rohati dil qolmadi dildorsiz, -

baytida “parivash” so‘zi istiora bo‘lib, “pariga o‘xshash go‘zal” ma’nosida ishlatilmoqda. Lirik qahramon tasvirlayotgan go‘zalning juda chiroyli ekanligi, parilar husnidek husnga ega ekanligi va xuddi parilar singari hammaning ko‘ziga ham ko‘rinavermasligiga ishora qilinmoqda. Nodira she’riyatida yorning yuzi o‘rnida “oy”, “moh”, “xurshidi mahpaykar”, “xurshidi tobon”, “sham’i ruxsor”, “gulruxsor”, “pariro”,

yorning qomati ma’nosida “sarvi xiromon”, “sarvi qomat”, “sarvi ravon”, yorning ko’zi ma’nosida “nargisi xumor”, “nargisi mastona”, so’z va so’z birikmalari ishlatiladi. Shuningdek, yorning jafokashligini ifodalash maqsadida “sho’xi zulmparvar”, “sho’xi jafopesha” ifodalari ishlatilsa, yorning o’z oshiqi oldidagi ulug’vorligini ta’kidlash uchun “shohi jahon” ifodalari ishlatiladi. Bular, asosan, istiora san’ati orqali hosil qilinadi.

Nodiraning mashhur muashsharida shunday misralar bor:

G’am bila guldek yuzimni qahrabo aylar falak.

Bu misrada “kahrabo” so’zi istiora bo’lib, sarg’aygan, za’faron rangli yuzni anglatish uchun ishlatilmoqda.

Vaqtı xirom ey sanam, diydalarimga qo’y qadam,

Xoki rakingga aylaram chashmi guharfishon fido.

Baytdagi “sanam”, “diydalarimga qo’y qadam” va “chashmi guharfishon” so’zlari istioradir.

Tuzilishiga ko’ra istioralar sodda va murakkab istioralarga ajratiladi. Bir so’zdan iborat istioralar sodda istiora, birikmali istioralar esa murakkab istioralar deyiladi. Nodiraning yuqoridagi baytida “sanam” so’zi sodda istiora, “diydalarimga qo’y qadam” va “chashmi guharfishon” so’zlari esa murakkab istioralardir.

Ifodalanishiga ko’ra otlardan tashkil topgan istioralar istiorai asliyya, fe’llardan tuzilgan istioralar esa istiorai tabiiya deb yuritiladi. Yuqoridagi baytlar misolida ko’radigan bo’lsak, “sanam”, “chashmi guharfishon” so’zlari istiorai asliyya, “diydalarimga qo’y qadam” so’zlari esa istiorai tabiiyadir.

Sendin ayru talxkom o’ldi debon zahri firoq,

Yoshurun dardimni ul la’li shakarborimg’a ayt.

Ushbu misralardagi “zahri firoq” va “la’li shakarborim”g’a iborolari istiorai asliyyadir.

Ko’zum yo’lingdadur, ey sarvi gul’uzorim, kel,

Ko’ngulda qolmadi sabru qaror, yorim, kel - misralarida “sarvi gul’uzor” birikmasi istiora bo’lib, chiroyli yor qomati ma’nosida sarv, gul’uzor so’zlari ishlatilmoqda.

Shoira she’riyatida ishlatilgan bu singari istioralar Nodira badiiy tafakkur dahosining ko’lami, yuksak ijtimoiy-axloqiy g’oyalarni jilolantirish san’atkorligi ifodasi bo’lib kelgan. Ushbu san’at orqali ifodalangan fikrlar o’quvchilarda go’zal his-tuyg’u va tasavvur uyg’otishi tabiiy.

Shoiralar she’riyatining shoirilar nazmidan farqi, o’zgacha xosiyati ixlosmandlarni juda qiziqtiradigan muammo. Ushbu muammo kaliti badiiy mahoratni tadqiq etish yo’li bilan qo’lga kiritiladi. Nodira yetuk mahorat sohibasi va uning nazmida ayollarga xos fikriy mushohada uslubi, ramzu timsollar tizimi mujassam.

Albatta, Nodira o’z sinfiy pozitsiyalaridan tamomila voz kechmagan edi. Uning amaliy faoliyati shubhasiz o’zi mansub bo’lgan feodal sinfining hokimiyatini mustahkamlashga qaratilgan edi. Lekin u har doim adolat, sulhparvarlik va xalqparvarlik nuqtai nazaridan ish ko’rar edi. Ammo uning bu jur’atlari reaksion doiralarning g’azabini qo’zg’amay qo’ymas edi. Ular o’zlarining eng yaqin tayanchlari bo’lgan Buxoro amiri Nasrulloxonga takror-takror murojaat etib, Nodirani o’rtadan olib tashlashni so’raydilar.

Shoira biror-bir fikr-kuzatishlari, o‘y-mushohadalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalamaydi – xoh an‘naviy, xoh ohorli bo‘lsin, tashbehlar qatiga o‘rab beradi. Shuning uchun Nodira ijodida eng ko‘p uchraydigan badiiy san‘at bu – tashbeh hisoblanadi. Shoira she‘rlarini tahlil qilish asnosida shunga amin bo‘lish mumkinki, shiora baytlarini alohida-alohida san‘atlar nuqtai nazardan olib o‘rganish deyarli mumkin emas. Chunki ularda kamida ikki yo uchta san‘at birgalikda keladi. Bir baytda bir necha badiiy san‘atlardan foydalanish Nodira ijodi uchun xos xususiyat hisoblanadi. Bu uning shoirlik salohiyati ancha balandligi, buyuk salaflaridan mahorat sabog‘ini o‘zlashtirganidan dalolat beradi. Nodira lirikasida tashbehlarining xilma-xil ko‘rinishlarini uchratish mumkin. Chunonchi, quyidagi bayt tashbehi mutlaq ( tashbehi tom) ning go‘zal namunasi:

Yuzi gulu, qadi shamshod, ko‘zlari nargis,  
Bahori yosumanimni tushimda ko‘rsam edim .

Bu bayt “orzu qilish” ma‘nosini anglatuvchi tamanni san‘ati asosida yaratilgan. Mazkur san‘at orqali lirik qahramonning biror tilagi – ya‘ni, tamannosi ifoda etiladi.

Sharq she‘riyati faqat ma‘no va mohiyat tomonidan emas, mavzuni yoritishda bir-biridan ta’sirli badiiy san‘atlardan foydalanish jihatidan ham e‘tiborga molikdir. Bunda mavzuga munosabatda an‘naviylikka qanday amal qilingan bo‘lsa, she‘r yozish jarayonida badiiy san‘at qo‘llashda ham deyarli shunday ish ko‘rilgan. Xuddi shunday, Nodira ijodida ham unga qadar bo‘lgan o‘zbek she‘riyatida ma‘lum darajada mavjud bo‘lgan poetik vositalarning taraqqiy etganligini ko‘ramiz. Shoira tomonidan sevib ishlatilgan va a‘lum ma‘noda rivojlantirilgan san‘atlardan yana biri tamsil san‘atidir. Tamsil – misol keltirish, bir fikr yoki ma‘noni unga aloqasi bo‘lmagan turli hodisa, voqea yoki tushuncha bilan dalillash san‘atidir. “Bunda “dalil” alohida topqirlik, nigoh va mushohada o‘tkiriligini talab qiladi...” Nodira lirikasida tamsil san‘atining ko‘plab namunalarini uchratamiz. Zulfning qoraligi, uzunligi, gajjakligi mumtoz shoirlarimiz uchun badiiy tasvir manbasi sifatida ko‘p ishlatilgan ammo Nodira zulfning qoraligini yomg‘ir keltiruvchi qora bulutga qiyos qilgan holda juda ohorli tamsil keltirishga harakat qilgan. Quyidagi bayt bunga misol bo‘la oladi:

Ko‘zlarim yig‘ladi zulfingni ko‘rub,  
Ki yog‘in boisidur tiyra bulut

Ya‘ni, qora zulflaringni ko‘rib, ko‘zlarim ko‘z yosh to‘kdi, yig‘ladi, xuddi “tiyra” qora bulut yomg‘ir keltirganidek, sening fora zulfing ham ko‘zimdan yoshlarni oqizdi”. Quyidagi baytda shoira tamsil san‘atini mubolag‘a va istiora san‘atlari bilan qorishiq holda beradi:

Mohi tobon yuzlugum, har lahza yod etsam seni,  
Dud bag‘rimdin chiqar o‘t ichra tushgandek kabob .

“Mohi tobon yuz” – istiora san‘ati asosida yaratilgan badiiy tasvir bo‘lsa, yorini ko‘rgan oshiq bag‘ridan dudning chiqishi tasviri mubolag‘aga zamin bo‘lgan. Oshiq bahridan chiqqan dudning holatini to‘liq tasavvur qilishi uchun lirik qahramon o‘tga tushgan go’sht parchasini misol tariqasida keltirgan.

Nodira she‘riyatida bunday badiiy tasvirlarni ko‘plab keltirish mumkin. Ularning barchasi shoira badiiy tafakkurining kengligidan, shoirlik iqtidori va badiiy salohiyatining yuqoriligidan dalolat beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Shayx Ahmad Taroziy. Funun ul-balog’a // O‘zbek tili va adabiyoti. 2002. - №5. – B. 90.
2. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent, 1999. 53-bet.
3. Aliyev S. Fuzuliy poetikasi. Baku, 1985. 15-bet.
4. Rajabova B. Tamsil – ma’no va haqiqat mezoni / Navoiyning ijod olami. 2-kitob. Toshkent, 2011. 75-bet.
5. Nodira // O‘zbek shoiralari bayozi. Toshkent, 1993. 151-bet.
6. Nodira // O‘zbek shoiralari bayozi. Toshkent, 1993. 141-bet.
7. Nodira // O‘zbek shoiralari bayozi. Toshkent, 1993. 237-bet.